



O'RТА ASRLARDA RIM KATOLIK CHERKOVI DOKTRINASI VA UNGA QARSHI KUCHLAR MUNOSABATI

Ilmiy rahbar: Patiyev Xoldor Ikromovich

Termiz Davlat Pedagogika institutining

Milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviyat

asoslari va huquq ta'limi yo'naliшining

3-kurs talabasi Bozorova Mehriniso

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'rta asrlarda Rim davlatiga katolik cherkovining ta'siri haqida to'xtalib, Rim katolik cherkovi doktrinasining ijtimoiy siyosiy hayotda tutgan o'rni va oqibatlari haqida bat afsil yoritib o'tiladi. Shuningdek ushbu davrdagi G'arbiy Yevropada mavjud Yeretiklar harakatining maqsadlari haqida.

Kalit so'zlar. Xristianlik, Iso Masih, Din, Kardinallar, Katolik cherkovi, Doktrina, Papa, Cherkov otalari, Indulgensiya, Modernizatsiya, Imperator Konstantin

Kirish. Jahon dinlaridan biri hisoblangan Xristianlik (yunoncha Xpiotoq - "Moylangan", "Masih") - bu Yangi Ahdda tasvirlangan Iso Masihning hayoti va ta'lomi atrofida Falastinda taxminan 33 yil davomida paydo bo'lgan dunyo dinidir. Nasroniylarning nasroniylik Iso Masih, Xudo O'g'li va insoniyatning Qutqaruvchisi ekanligiga ishonishadi. Masihiylar uning tarixiyligidan shubhalanmaydilar. Xristianlik diniga 2,4 milliardga yaqin odam e'tiqod qiladi BMT ma'lumotlariga ko'ra xristianlik dinining yillik o'sishi 1,4 % ni tashkil etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada o'rganilayotgan muammo ilmiy tadqiqotning ijtimoiy va qiyosiy tahlil, mantiqiylik, ilmiylik va xolislik metodlari asosida yoritilishiga e'tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar. Rim katolik cherkovi deb nomlanadigan katolik cherkovi dunyodagi eng katta xristian cherkovi bo'lib, 1.29 milliarddan ziyod a'zodan iborat.



Dunyodagi eng qadimiy diniy institatlardan biri sifatida G‘arb madaniyati tarixi va rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Rim papasi yepiskopi rahbarligida papa deb nom olgan, jamoat ta’limoti Nicene Creedda nashr etilgan. Uning markaziy hukumati, Vatikan shahridagi Anadir, Rim, Italiya. Katoliklik bu Iso Masihning favoriyatlari uchun vorisdoshi bo‘lgan va Iso Masih unga bergen muqaddas Pet’orning izdoshi bo‘lgan Iso Masih tomonidan tashkil etilgan Muqaddas, katolik va Apostolik kelib cherkov deb ta’lim beradi. Bu asl masihiy imonni amalda qo‘llashini, uni xatolikka yo‘l qo‘ymasligini va muqaddas urf-odatlardan meros bo‘lib o‘tganligini ta’kidlaydi. Lotin cherkovi, Sharqiy katolik cherkovi va Beggarlar ordenining yopiq tartibi kabi boshqa muassasalar cherkovning turli diniy va ma’naviy ustunligini aks ettiradi.

Xristianlik 325 yilda Rim imperiyasida rasmiy mafkura va davlat dini deb rasmiy ravishda e’lon qilingan edi. Xristianlik rasman tan olingan davrdagi tarixiy shart-sharoit quyidagicha edi: Rim quzdorlik davlatining qullarga va bosib olingan mazlum xalqlarga nisbatan qattiq jabr-zulm qilishiga qarshi olib borilgan ozodlik urushlari va qo‘zg‘olonlar birin-ketin mag‘lubiyatga uchrab, ulardan shafqatsiz o‘ch olinib jazolashlar oqibatida umumiyluhiy ruhiy-ma’naviy inqiroz paydo bo‘lgan. Qullar sinfidan bo‘lgan Spartak etakchiligidagi eramizdan aw algi 73-71 yillarda Rimdagagi qo‘zg‘olon bostirilgach, 6 ming qul Rimga olib boradigan yo‘llar chetiga qurilgan xochlarga mixlab tashlangan. O‘sha fojea oqibatida umumiyluhiy umidsizlik avj olgan. Spartakning mag‘lubiyati, - degan edi tarixchi Shari Enten, - Isoning g‘alabasi edi. Qachonlardir shon-shuhratga, kuch-qudratga to‘lib-toshgan Rim quzdorlik davlati eramizning I-III asrlariga kelib inqirozga yuz tutdi.

Qulchilik o‘rniga feodal tartiblar o‘rnatala boshlandi. Quldarlar va boshqa yuqori tabaqalar orasida ijtimoiy aynish kuchayib, ma’naviy buzilish, ayshuishratga berilish o‘sib bordi. Rim davlati hududlarida yashayotgan turli urug‘lar, qabilalar, elat va xalqlar o‘z xudolariga, payg‘ambarlariga, urf-odatlariga sig‘inar edilar. G‘oyaviy-mafkuraviy birlik bo‘lmaganligi ham Rim qudorlariga xalq ustidan siyosiy va g‘oyaviy hukmronlik qilishni tobora qiyinlashtirardi. Xuddi ana shu uchta tarixiy sababga ko‘ra xristianlik nisbatan tezroq shakllanib bordi, u ko‘pchilik orasida keng tarqaldi, yuqori va quyi katlamdagi kishilar orasida e’tiqod, iymonga aylandi. Yangi



din yuqori tabaqa uchun mazlumlar ustidan hokim bo‘lish yo‘llarini olib berdi, xalqni esa tinchlantirdi.

Xuddi o‘sha davrda yana bir harakatning O‘rta asr Yevropa feodalizmi sharoitida xalq ommasining ekspluatatsiya qilinishi, tengsizlik pirovard natijada mehnatkashlar ommasida norozilikning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi va bu O‘rta asr ijtimoiy ongida o‘z hukmronligiga ega bo‘lgan xristianlikka o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmasligi mumkin emas edi. Bularning barchasi G‘arbiy Yevropada rim-katolik cherkovi doktrinasida papalikdan turli xil chekinishlar, oqimlar, hatto rasmiy diniy ta’limotga nisbatan dushmanlik kayfiyatda bo‘lgan muxoliflar - yeseschilar harakati vujudga keldi.

Tahlil va natijalar. Diniy ta’limotdagi modernizatsiya jarayonlari ta’sirida katolik cherkovining ustunligi to‘g‘risidagi g‘oyadan voz kechildi, umumiyligi xristianlik g‘oyalari atrofida birlashish zarurligi tan olindi.

Xristianlik konfessiyalarini birlashtirish to‘g‘risidagi ekuminizm (grekcha aikumene — odamlar yashaydigan dunyo, olam degan ma’nolarni anglatadi) g‘oyasi qabul kilindi. Mazkur voqeя konfessiyalararo munosabatlarning yaxshilanishida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi, chunki shu vaqtgacha katolitsizm xristianlarni faqat katolik cherkovi ta’limoti asosida birlashtirish mumkin, deb hisoblar edi. Katolik va pravoslav cherkovlarining 1054 yildagi bir-birini la’natlash to‘g‘risidagi qarorlari bekor qilindi. Uniat (xristianlik tashkilotlarining katolik cherkovi bilan ittifoqini yoqlovchi oqimlar) larga pravoslavie yoki boshqa oqimlar sirli marosimlarini qabul qilish huquqi berilgan.

Cherkovning ijtimoiy ta’limoti (doktrinasi)da ham jiddiy o‘zgarishlar mavjuddir. Doktrinaning xozirgi sivilizatsiyaga munosabati masalasida pessimistik qarashlar ustunlik qiladi. Chunki cherkov xozirgi zamon sivilizatsiyasi chuqur inqirozga uchragan deb biladi. Inqirozning moddiy sababi — olamshumul (global) muammolarniig hal qilinmaganligi. Xulosa qilib aytganda, katolik cherkovi xristianlikning etakchi yo‘nalishlaridan biri sifatidagi ahamiyatini saqlab qolgan. Uning tarkibidagi rasmiy va muxolif yo‘nalishlar ijtimoiy hayotdagi turli manfaat va ehtiyojlarni to‘liqroq ifodalashga yordam beradi. Son jihatdan unchalik katta



bo‘limgan katolik jamoalari Markaziy Osiyoning ayrim nohiyalarida ham mavjud. Toshkentda 1990 yilda katolik markazi tuzildi, uning qoshida respublikamizning boshqa xududlaridan ro‘yxatdan o‘tgan katolik diniy jamoalari ham o‘z faoliyatlarini olib bormoqdalar. O‘rta asrlarda katolik cherkovi asosiy boylik sanaluvchi er maydonlarining katta qismiga egalik qilgan. Aholi daromadning o‘ndan bir qismini soliq shaklida cherkovga to‘lagan. Ruhoniylar tushumlarni ko‘paytirish maqsadida xizmat to‘lovlari miqdorini oshirib borish bilai birga mansabni suiste’mol qilish, tamagirlilik, poraxo‘rlik kabi vositalardan foydalanan edilar.

Indulgensiylar (lotincha ihduigefida - rahm-shafqat degan ma’noni anglatadi) sotish keng qullanilgan. Ruhoniylarnng ma’naviy buzuqligi, befarqligi, beg‘amligi shu darajada keng ildiz otgan ediki, cherkov uni o‘z doktrina-sida ham aks ettirishga majbur bo‘lgan. Doktrinaga binoan, ma’naviy fazilatlaridan qat’i nazar, diniy marosimni ruhoniy bajargan bo‘lsa, ilohiy ahamiyatini yo‘qotmagan. Feodal munosabatlarning dastlabki rivojlanish bosqichida (V asr oxiri-VI asr o‘rtalari) G‘arbiy Yevropada mavjud bo‘lgan yereschilar ham ommaviy harakterga ega emas edilar.

XI-XII asrlarga kelib esa yereschilar harakatining faollashuvi kuzatiladi, ularning saflari yanada kengaiib, Shimoliy Italiya, Janubiy Fransiya va Germaniyaning bir qismi-intensiv rivojlangan shaharlarda faoliyat ko‘rsata boshlaydi. XI-XIII asrlarda muxolif yereschilar harakati ijtimoiy-sinfiy tabaqalanmagan bo‘lib, keyinchalik, XIV-XV asrlarga kelib mustaqil harakatlar sifatida plebey- dehqonlar va byurgerlar (shaharlik) yereschilarga bo‘linishi yuz beradi. Shunday qilib, birinchi yirik yereschilar harakatlari Yevropa va Bolgariyada X -XV asrlarda bo‘lib o‘tdi.

Yereschilar harakatining dasturi eng qashshoqlashgan plebey-dehqonlar ommasining manfaatlarini himoya qilar ekan, dinga e’tiqod qiluvchilarni ilk xristianlik cherkoviga qaytishga da’vat etar edilar. Muqaddas Bibliya yereschilarning rim-katolik cherkoviga qarshi qudratli quroliga aylangan edi. XIV-XV asrlarda muxolif yereschilar harakati tarkibida ikki oqim vujudga kelgan bo‘lib, bular byurgerlar va plebey- dehqonlar yereschilaridir. Byurger yereschilari o‘ziga to‘q



bo‘lgan shaharliklar va ularga yaqin turgan ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy-siyosiy manfaatlarini o‘zida ifoda etgan bo‘lib, ular davlatning byurgerlik konsepsiysi bilan uzbekiy aloqador edi va bu konsepsiyada yagona davlatni barpo etish to‘g‘risida nazariy g‘oyalarlar talqin etilardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.
2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 31
3. Авдиев В.И. Қадимги Шарқ тарихи. – Тошкент: Ўрта ва Олий мактаб давлат нашриёти, 1964. – 446 б.
4. Бойназаров Ф.А. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – 320 б.
5. Бенгтсон Г. Правители эпохи эллинанизм. –М. 1982.стр. 266
6. Патиев, X. (2023). ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(11).
7. Ikromovich, P. X. (2023). Jadid ma’rifatparvarchiligi shakllanishidagi tarixiy shartsharoit va obektiv zaruriyat. Finland International Scientific Journal of Education. *Social Science & Humanities*, 11(3), 167-179.
8. Xoldor, P. (2024). JADIDCHILIK G ‘OYALARI TARG ‘IBOTINING IQTISODIY MUOMMOLARGA NISBATAN IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 281-285.
9. PATIYEV, X. (2024). JADID MA’RIFATPARVARLARI QARASHLARIDA FARZAND TARBIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TASNIFI. *News of the NUUz*, 1(1.10. 1), 166-168.



10. Ikromovich, P.K. JADIDIZM HARAKATINING MOHIYINING IJTIMOIY-FALSAFIY YONDORISHI. *Amerika ijtimoiy fanlar va insoniyat tadqiqotlari jurnali*, 4 (11), 175-181.
11. HAKIMOVA, M. R. MAMLAKAT VA FRONT EHTIYOJLARIGA QARATILGAN QISHLOQ XO ‘JALIGI SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING FRONTORTI JASORATLARI.
12. Rashidovna, H. M. (2022). New Uzbekistan in the World's View: Achievements for Active Foreign Policy and Socio-economic Cooperation. *International Journal on Integrated Education*, 5(6), 423-427.
13. Baymatov, A. K. (2022). MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG’RIKENGLIKNI TA’MINLASHDA MILLIY O ‘ZLIKNI ANGLASHNING O’RNI. Евразийский журнал академических исследований, 2(4), 23-27.
14. Qahramonovich, BA (2024). Jamiyatda Tinchlik va Barqarorlikni Ta'minlash-Ma'naviy yuksalish omili. Peerian jurnali , 29 , 63-67.
15. Kahramonovich, B. A. (2024). Providing Peace And Stability In The Society-A Factor Of Spiritual Increase. The Peerian Journal, 29, 63-67.
16. Kahramonovich, B. A. (2024). Providing Peace And Stability In The Society-A Factor Of Spiritual Increase. The Peerian Journal, 29, 63-67.